ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-3

Raqamli transformatsiya shoritida xalqaro savdoning rivojlanishi yo'nalishlari

Eshqulova Nasiba Normo'minovna,
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti Iqtisodiyot kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya: *Maqolada O'zbekistonda AKT sohasidagi imkoniyatlar va xizmatlar eksportini rivojlantirish yo'llari ko'rib chiqilgan. Dasturiy ta'minot, elektron to'lov tizimlari, bulutli texnologiyalar va sun'iy intellekt kabi sohalarda mamlakatning katta potentsiali ta'kidlangan. AKT xizmatlarini rivojlantirish orqali eksportni diversifikatsiya qilish, yuqori daromadli ish o'rinlari yaratish va iqtisodiyotni rivojlantirish imkoniyatlari yoritilgan. Malakali kadrlar tayyorlash, innovatsion yechimlar va xalqaro hamkorlikni kuchaytirish orqali O'zbekistonni mintiqada AKT eksporti bo'yicha yetakchiga aylantirish taklif etilgan.*

Kalit so'zlar: AKT xizmatlari, eksportni diversifikatsiya qilish, dasturiy ta'minot ishlab chiqish, sun'iy intellect, xalqaro hamkorlik

Abstract: *The article explores the opportunities in the field of information and communication technologies (ICT) in Uzbekistan and ways to develop services exports. The country's significant potential in areas such as software development, electronic payment systems, cloud technologies, and artificial intelligence is highlighted. The development of ICT services can diversify exports, create high-income jobs, and boost the economy. The article proposes strengthening skilled workforce training, promoting innovative solutions, and enhancing international cooperation to position Uzbekistan as a regional leader in ICT exports.*

Key words: ICT services, export diversification, software development, artificial intelligence, international cooperation

Kirish

Raqamli transformatsiya zamonaviy iqtisodiyotning ajralmas qismiga aylangan bo'lib, xalqaro savdoning rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Raqamli texnologiyalar global bozorlarga chiqishni osonlashtirib, savdo jarayonlarini tezlashtirish va samaradorligini oshirish imkonini bermoqda. Elektron tijorat, blokcheyn, sun'iy intellekt va katta hajmdagi ma'lumotlar (big data) kabi texnologiyalar xalqaro savdoni yanada oshkora, xavfsiz va samarali qilishga xizmat qilmoqda.

O'zbekiston tashqi savdosi jadal rivojlanayotgan bo'lsa-da, bir qator muammolarga duch kelmoqda. Eng asosiy muammolardan biri eksport tarkibining yetarlicha diversifikatsiya qilinmagani bo'lib, xomashyo mahsulotlari ustunlik qiladi. Yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar ulushining pastligi O'zbekistonning global bozordagi raqobatbardoshligini cheklaydi. Shuningdek, eksport geografiyasining torligi, xalqaro standartlarga mos mahsulot ishlab chiqarish va sertifikatsiya jarayonlarining murakkabligi yangi bozorlarga chiqish imkoniyatlarini cheklab qo'ymoqda.

Bundan tashqari, logistika va transport infratuzilmasining yetarlicha rivojlanmagani tashqi savdoda muhim to'siq bo'lib qolmoqda. O'zbekistonning dengiz portlariga chiqish imkoniyatining yo'qligi transport xarajatlarini oshiradi, bu esa eksport mahsulotlarining narx raqobatbardoshligini pasaytiradi. Temir yo'l va avtomobil transportida tranzit yuk tashish tizimining optimallashtirilmagani ham xalqaro savdo jarayonlarini murakkablashtiradi. Shuningdek, Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi transport tariflari va bojxona rasmiylashtiruvi jarayonlari ham muhim muammolardan biri hisoblanadi.

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-3

O‘zbekiston uchun raqamli transformatsiya sharoitida xalqaro savdoni rivojlantirish strategik ahamiyatga ega. Mamlakatimiz tashqi savdo hamkorliklarini kengaytirish, eksport geografiyasini diversifikatsiya qilish va mahsulotlarning global bozor raqobatbardoshligini oshirishga intilmoqda. Ayniqsa, elektron bojxona tizimlarini joriy etish, savdo jarayonlarini raqamlashtirish va onlayn eksport platformalaridan foydalanish O‘zbekiston eksportyorlari uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktabrdagi PF-157-sonli Farmonida IT sohasida faoliyat yuritayotgan mahalliy kompaniyalarni jahon bozoriga olib chiqish, xalqaro IT-bozorida faoliyat ko‘rsatuvchi xorijiy korxonalarni mamlakatimizga jalb qilish va ularning eksport faoliyatini yo‘lga qo‘yish va boshqa ko’plab masalar belgilangan [1].

Shu sababli raqamli transformatsiyaning xalqaro savdoga ta’siri, O‘zbekiston uchun mavjud imkoniyatlar va duch kelinayotgan muammolar tahlil qilish hamda mamlakatning raqamli savdo infratuzilmasini rivojlantirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish o’ta dolzarb hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

O‘zbekiston eksportining asosan xom ashyo va qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga bog‘liqligi, shuningdek, yuqori qo‘shilgan qiymatga ega bo‘lgan mahsulotlar eksportining pastligi muammolari koplab olimlar tomonidan ko’rsatib o’tilgan. Mazkur tadqiqotlarda diversifikatsiyani amalga oshirish uchun yangi sohalarni rivojlantirish, innovatsiyalarni qo‘llash va raqamli texnologiyalardan foydalanish tavsiya etilgan [2]. Bundan tashqari, eksportni diversifikatsiya qilish uchun yuqori texnologiyali mahsulotlar, xususan, IT mahsulotlari ishlab chiqarishni rivojlantirish tavsiya etilgan [3].

Eksportni diversifikatsiya qilishda raqamli texnologiylarning ahamiyati boshqa tadqiqotlarda ham qayd etilib, yuqori texnologiyali mahsulotlar ishlab chiqarish va xizmatlar eksportini rivojlantirish orqali mamlakatning global bozorlarda raqobatbardoshligini oshirish mumkinlig ko’rsatilgan [4]. Mamlakat eksport salohiyatini oshirishda kichik va o‘rta biznesni qo‘llab-quvvatlash, moliyaviy imtiyozlar yaratish va raqamli texnologiyalardan foydalanish orqali tadbirkorlarning eksport salohiyatini oshirish mumkin [5].

Raqamli to‘lov tizimlarining rivojlanishi eksportni qo‘llab-quvvatlashdagi ahamiyati hamda raqamli texnologiyalar orqali eksportchilar uchun moliyaviy operatsiyalarni soddalashtirish, xalqaro to‘lovlarni tezlashtirish va xavfsizlikni oshirish imkoniyatlari masalarini ayrim tadqiqotlarda ko’rishimiz mumkin [6]. Kichik biznes eksportni diversifikatsiya qilish va yangi bozorlarga kirishda muhim rol o‘ynashi ham aniqlangan [7].

Shu bilan birga raqamli transformatisyaning xalqaro savdoga ta’sirining mexanizmi to’liq tadqiq etilmagan. Shuningdek, bu sohadagi mavjud muammolar va ularni bartaraf etish boyicha etarli darajada tavsiylar ishlab chiqilmagan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada xalqaro savdoning rivojlanishida, xususan, eksport tarkibi va diversifikatsiyasini oshirishda raqamli transformatsiyaning ahamiyati, ularning eksport salohiyatini yanada kengaytirish bo‘yicha yetakchi mahalliy va horijiy iqtisodchi olimlarning tadqiqot natijalari, xalqaro va milliy statistika ma‘lumotlarini taqqoslash, guruhlash, iqtisodiy tahlil va sintez, abstrakt mantiqiy tahlil hamda analitik tahlil kabi usullardan foydalanilgan. Tadqiqot natijalari asosida sohadagi mavjud muammolarni bartaraf etish bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflar va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-3

TAHLIL VA NATIJALAR

Raqamli transformatsiya sharoitida raqamli texnologiyalar xalqaro savdoda ikki asosiy jihatdan namoyon bo‘lmoqda: savdo infratuzilmasi sifatida va savdo predmeti sifatida namoyon bo’ladi.

Raqamli texnologiyalar savdo infratuzilmasi sifatida

Raqamli texnologiyalar xalqaro savdo jarayonlarini soddalashtirish, tezlashtirish va samaradorligini oshirish uchun muhim infratuzilma vazifasini bajaradi. Elektron hujjatlar aylanishi, bojxona tizimlarining avtomatlashtirilishi, to‘lov tizimlarining raqamlashtirilishi hamda sun’iy intellekt va blokcheyn asosidagi yetkazib berish zanjirlari xalqaro savdoda xarajatlarni kamaytirish va shaffoflikni oshirishga xizmat qilmoqda. Masalan:

Elektron bojxona tizimlari tovarlarning tezroq rasmiylashtirilishini ta’minlaydi.

Blokcheyn texnologiyalari yetkazib berish zanjirida ma’lumotlarning ishonchliligini oshiradi.

Elektron tijorat platformalari kichik va o‘rta biznes subyektlariga global bozorlarga chiqish imkonini beradi.

O‘zbekiston uchun bu sohadagi rivojlanish eksport-import operatsiyalarini tezlashtirish, tashqi savdo jarayonlarini soddalashtirish va yangi bozor segmentlariga chiqish imkonini kengaytiradi.

Raqamli texnologiyalar savdo predmeti sifatida

Raqamli texnologiyalar nafaqat savdo jarayonlarini qo‘llab-quvvatlovchi infratuzilma, balki mustaqil mahsulot sifatida ham xalqaro bozorda muhim o‘rin egallaydi. Axborot texnologiyalari mahsulotlari, dasturiy ta’minotlar, sun’iy intellektga asoslangan xizmatlar va raqamli platformalar global savdoda tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Dasturiy ta’minot va IT xizmatlari raqamli iqtisodiyotda asosiy eksport tovarlariga aylanmoqda.

Ma’lumotlar va tahliliy xizmatlar kompaniyalarning bozor strategiyalarini shakllantirishda muhim rol o‘ynamoqda.

Raqamli kontent va platformalar (masalan, raqamli media, onlayn ta’lim va texnologik echimlar) global savdoda o‘ziga xos tovar sifatida talab qilinmoqda.

O‘zbekiston uchun IT sohasini rivojlantirish va dasturiy mahsulotlarni eksport qilish strategik yo‘nalishlardan biridir. So‘nggi yillarda mamlakatimizda IT-parklarning tashkil etilishi, IT xizmatlar eksportining oshishi va startap ekotizimining shakllanishi raqamli texnologiyalarni xalqaro savdo predmeti sifatida rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

O‘zbekistonda raqamli texnologiyalarning rivojlanishi, ayniqsa, xalqaro savdo va eksportni rivojlantirishga katta hissa qo‘shmoqda. Raqamli texnologiyalar orqali eksport jarayonlari soddalashtirilmoqda, mahsulotlarning raqobatbardoshligi oshirilmoqda va yangi bozorlarga kirish imkoniyatlari yaratilmoqda. Xususan, raqamli texnologiyalar eksportni diversifikatsiya qilish, logistika xarajatlarini kamaytirish va global bozorlar bilan aloqalarni mustahkamlashda muhim rol o‘ynaydi.

Birinchi navbatda, raqamli platformalar va elektron savdo (e-commerce) vositalari orqali O‘zbekiston kompaniyalari mahsulotlarini dunyo bozorlarida targ‘ib qilish imkoniyatiga ega bo‘ldi. Masalan, “Amazon”, “Alibaba” kabi global platformalar orqali mahsulotlarni sotish imkoniyatlari kengaydi. Bu esa, ayniqsa, kichik va o‘rta biznes uchun yangi imkoniyatlar yaratdi.

Ikkinchidan, raqamli texnologiyalar logistika va zanjir boshqaruvini yaxshilashga yordam beradi. Masalan, IoT (Internet of Things) va blockchain texnologiyalari orqali mahsulotlarning harakatini

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024


real vaqtda kuzatish, to‘lov jarayonlarini tezlashtirish va xavfsizlikni oshirish mumkin. Bu esa eksportchilar uchun vaqt va resurslarni tejash imkoniyatini beradi.

Uchinchidan, raqamli texnologiyalar orqali bozor tadqiqotlari va mijozlar ehtiyojlarini tahlil qilish osonlashtirildi. Katta ma’lumotlar (big data) va sun’iy intellekt (AI) yordamida eksportchilar global bozorlarning tendentsiyalarini aniqlash va o‘z mahsulotlarini moslashtirish imkoniyatiga ega bo‘ldi. Shuningdek, raqamli to‘lov tizimlari va moliyaviy texnologiyalar (fintech) eksportchilar uchun xalqaro to‘lovlarni amalga oshirishni qulaylashtirdi. Bu esa, ayniqsa, kichik bizneslar uchun muhim bo‘lib, ularning global bozorlarda faol ishtirok etishiga yordam beradi.

Umuman olganda, O‘zbekistonda raqamli texnologiyalarning rivojlanishi xalqaro savdo va eksportni rivojlantirishga katta turtki berayotir. Raqamli texnologiyalar orqali eksport jarayonlari yanada shaffof, tez va samarali bo‘lib, mamlakatning global bozorlarda raqobatbardoshligini oshirmoqda. Bu esa O‘zbekiston iqtisodiyotini diversifikatsiya qilish va barqaror rivojlantirish yo‘lida muhim qadam hisoblanadi.

Shu bilan birga xizmatlar eksporti tarkibida AKT xizmatlarining ulushi 8.6 % tashkil etadi.

O‘zbekistonda xizmatlar eksporti, ayniqsa, so‘nggi yillarda sezilarli o‘sish kayd etmoqda. 2024-yil ma’lumotlariga ko‘ra, xizmatlar eksporti hajmi 7,2 milliard AQSH dollarini tashkil etib, bu jami eksport hajmining 26,7% ini egallaydi (1-rasm).



1 – Rasm XIZMATLAR EKSPORTI TARKIBI [8]

Xizmatlar eksporti tarkibida eng katta ulush safarlar (turizm) va transport xizmatlariga to‘g‘ri keladi, ular mos ravishda 48,8% va 35,7% ni tashkil qiladi. Biroq, telekommunikatsiya, kompyuter va axborot xizmatlari (AKT) ning ulushi hozircha 8,6% atrofida qolmoqda, bu esa bu sohada hali ham katta imkoniyatlar mavjudligini ko‘rsatadi.

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-3

XULOSA VA TAKLIFLAR

O‘zbekistonda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) sohasida, ayniqsa, dasturiy ta’minot ishlab chiqish, bulutli texnologiyalar, sun’iy intellekt, ma’lumotlar tahlili va boshqa innovatsion yo‘nalishlar bo‘yicha katta imkoniyatar mavjud. Bu sohalarni rivojlantirish orqali nafaqat mamlakat iqtisodiyotini diversifikatsiya qilish, balki eksport salohiyatini oshirish va yuqori daromadli ish o‘rinlari yaratish mumkin.

Mahalliy elektron to‘lov tizimlari (“Click”, “Payme”, “Uzumbank” kabi) mamlakat ichida keng qo‘llanilmoqda. Biroq, ularni xalqaro bozorlarga chiqarish orqali global miqyosda raqobatbardosh qilish mumkin. Buning uchun xalqaro hamkorlik orqali to‘lov tizimlarini xorijiy mamlakatlar bilan integratsiya qilish imkoniyati o’rganish zarur.

Bundan tashqari, bulutli texnologiyalar, katta ma’lumotlar tahlili va sun’iy intellekt (AI) kabi texnologiylarni eksportda foydalanish bo’yicha ham, mazkur xizmatlarni eksport qilishda ham malakatimizda katta imkoniyatlar mavjud Bulutli xizmatlar va ma’lumotlar tahlili sohalarida xizmatlar ko‘rsatish orqali eksportni diversifikatsiya qilish mumkin. O’z navbatida, sun’iy intellekt (AI) asosida yaratilgan yechimlar (masalan, chatbotlar, avtomatlashtirilgan tizimlar) xalqaro bozorlarda talabga ega. O‘zbekiston kompaniyalari bu sohada o‘z mahsulotlarini ishlab chiqish va eksport qilish imkoniyatidan samarali foydalanishi maqsadga muvofiq.

Bundan tashqari raqamli transformatsiya sharoitida eksportni rivojlantirishda quyidagi choralar bu yo‘nalishda muhim hisoblanadi:

1. **Malakali kadrlar tayyorlash**: AKT sohasida malakali mutaxassislar tayyorlash va ularni xalqaro bozorlar talablariga moslashtirish.
2. **Innovatsion yechimlarni qo‘llash**: Startaplar va IT kompaniyalarni qo‘llab-quvvatlash, ularning innovatsion loyihalarini moliyalashtirish.
3. **Xalqaro hamkorlikni kuchaytirish**: Xalqaro texnologik markazlar va bozorlar bilan hamkorlikni rivojlantirish, eksport imkoniyatlarini kengaytirish.
4. **Infratuzilmani rivojlantirish**: Raqamli infratuzilmani yaxshilash, bulutli texnologiyalar va ma’lumotlar markazlarini qurish.

Bu yo‘nalishlarda samarali ishlar olib borilsa, O‘zbekiston AKT xizmatlari eksporti bo‘yicha mintiqada yetakchilardan biriga aylanishi mumkin. Bu esa nafaqat iqtisodiy o‘sishga, balki mamlakatning global texnologik xaritasida o‘z o‘rnini mustahkamlashga yordam beradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 14.10.2024 yildagi PF-157-sonli “Raqamlashtirish sohasida eksport faoliyati bilan shug‘ullanuvchi korxonalarni qo‘llab-quvvatlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi Farmoni,

2. Отамуродов, Шавкат. "Ўзбекистон экспорти диверсификациясининг замонавий муаммолари." *Economics and Innovative Technologies* 10.4 (2022): 355-364.

3. Otamurodov, Shavkat, and Nasiba Eshqulova. "O ‘zbekistonda to ‘lov tizimining raqamli transformatsiyasining o ‘ziga xos xususiyatlari." *YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT* 1.9 (2023).

4. Normuradovich, Raximov Eshmurod. "O‘zbekistonda eksport salohiyatini oshirish yo ‘llari." tanqidiy nazar, tahliliy tafakkur va innovatsion g ‘oyalar 1.5 (2025): 62-67.

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

5. Rustamovich, Kushiev Ulug'bek. "O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TADBIRKORLARNI QO'LLAB-QUVVATLASH VA EKSPORTGA JALB ETISH." *«ЗА НАИВЫСШИЕ ЗАСЛУГИ»* 1.1 (2024).

6. Normo'minovna, Eshqulova Nasiba. "O'zbekiston eksporti diversifikatsiyasining yo'nalishlari." Journal of Universal Science Research 1 (2023): 599-610.

7. Eshqulova, Nasiba. "O 'ZBEKISTON EKSPORT SALOHIYATIDAN SAMARALI FOYDALANISHDA KICHIK BIZNESNING AHAMIYATINI OSHIRISH YO 'LLARI." *Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil* 2.6 (2024): 49-59.

1. 8. O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasi ochiq ma'lumotlari //(www.stat.uz)